

Feruza ABDUSAMAD qizi matni,
Shermat YORMATOV musiqasi

«TONG YULDUZI»M, ONG YULDUZIM

«Tong yulduzi m, ong yulduzim,
Bobolardan meros izim.
Ulg'ayadi sen-la yoshim,
Sen ustozim, do'st, sirdoshim.

NAQORAT:
Ma'rifatning eshigisan -
ong yulduzim,
Ijodkorlar beshigisan -
«Tong yulduzi m.

Fan bog'iga boshlovchimsan,
Ezgu qadam tashlovchimsan.
Mehring qanot berar bizga,
Tiling yoqar o'g'il-qizga.

NAQORAT:
Tilsimlarga kalit o'zing,
Purma'nodir har bir so'zing.
Sahifang ko'p, xo'p rang-barang,
Bezagiga siz bir qarang.

NAQORAT:
Yur'boshimiz erkasimiz,
Kelajakning egasimiz.
Doim ilhom bergen bizga,
Baxtli, zukko o'g'il-qizga.

NAQORAT:

Tong yul-du-zim, ong yul - du - zim, Bo - bo - lar - dan me - ros i - zim
Ul g'a - ya - di sen - la yo - shim, Sen usto - zim do'st sirdo - shim
Naqorat: Ma' - ri - fat - ning e - shi - gi - san.
Ijod - kor - lar be - shi - gi - san Tong yul-du-zim, ong yul - du - zim,
Ma' - ri - fat - ning e - shi - gi - san I - jod - kor - lar be - shi - gi - san.

*Mehring ulug' hatto onamdan,
Chunki onam onasi sensan!*

Muharrir so'zi


CHARAQLA, YULDUZIM, CHARAQLAYVER!



Har kuni ishga kelar ekanman, pokiza, beg'ubor dargohning salobati bosadi. Ko'z o'ngimda bu yerda mehnat qilgan ulug' adiblar, zabardast jurnalistlar bilan birga, bugun kelajak sari ilgarilab borayotgan bolalar va o'smirlar gavdalanib, ajib tuyg'ular qurshovida qolaman va shu lahzada «Biz, bugungi jamoa zimmamizga yuklatilgan vazifani nechog'lik uddalay olyapmiz?» degan o'ylar bilan bajarayotgan va bajarmoqchi bo'lgan ishlarimizni sarhisob qilishga tushaman. Zero, bugun Vatan har birimizdan fioyilikni talab etmoqdaki, biz ulug' tarixiy voqealarni boshimizdan kechirayotganimizni, bu kunlar o'tib, bir kun kelajak avlod sa'y-harakatlarimizga baho berishlarini ham yaxshi anglaymiz. Ayniqsa, gap bolalar va o'smirlar haqida ketayotgan ekan, bu yo'lida Vatanimiz, Prezidentimiz oldimizga qo'yayotgan mas'uliyatlar yanada ulkan, yanada teranligini his eta boramiz. Mustaqilligimizning o'n sakkiz, Toshkentning

2200 yilligi, g'allamizning mo'lbilo'lganligi, bolalarga, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, yangi maktab, kollej, akademik litseylar va qolaversa, buyuk kelajak sari borayotgan yo'limizning to'g'riliqi, dunyoning bizga tan berayotgani, sport sohasida erishilayotgan yutuqlar – eh-he, bularning bari odamni quvontiradi, yaratadi va beixtiyor, ko'z tegmasin shu aziz yurtga, shu jonajon Vatanga, degingiz keladi.

Bu yurt bolalarining o'z «Tong yulduzi» bor. Ularning katta minbari. «Mening dastlabki she'rim, xabarim, maqolam shu gazetada chiqqan!» degan so'zlarni eshitar ekansiz, yuragingizda jo'shqin tuyg'ular barq uradi. Po'lat Mo'min, Quddus Muhammadiy, G'afur G'ulom, Qudrat Hikmat, Abdulla Oripov, Xudo yberdi To'xtaboyev, Tursunboy Adashboev, Anvar Obidjon, Kavsar Turdiyeva, Yoqtixon Rahimova, Erkin Malik, Narimon Orifjonov, Jabbor Razzoqov, Abdusaid Ko'chimov, Abdurahmon Akbar ijodlaridan bahramand bo'lgan bo'lajak qalamkashlar ularning ortidan borishmoqda.



Bugungi «Tong yulduzi» mamlakat bolalarining sevimli gazetasini. Uning tarixi uzoqqa borib taqaladi. Gazetaning dastlabki soni 1929-yilda uch ming nusxada Samarcand shahrida chop etilganini yaxshi bilasiz. Bolalar yozuvchisi Erkin Malikning bu to'g'ridagi xotira lavhasini o'qigan chiqarsiz. Ikkinci jahon urushi yillarda gazeta bir muddat to'xtab qolib, keyinchalik yana nashr etila boshlagan. Mustaqillik gazetaga yangi ruh, yangicha mazmun olib kirdi. 1992-yildan boshlab «Tong yulduzi» nomi ostida chop etib kelinmoqda. 2009-yil boshida yetmish ming nusxadan ko'proq chiqqa boshladi. Juda ko'plab ota-onalar gazetaning o'z bolalari hayotida muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida ta'kidlab, rahmatnomalar yuborishmoqda. Tahririyatimizga tashrif buyurayotganlarning soni ham ko'pchilikni tashkil etadi. Shunday tabarruk maskanda, eng avvalo, sog'lom muhitning bo'lishi zaruriy holat, deb bilaman. Chunki bolalik dunyosi eng pokiza va beg'ubor olam, u xiyonatni, yolg'onni ko'tara olmaydi. Qolaversa, bir kun janjal chiqqan uyda qirq kun baraka bo'lmasligini dono ota-bobolar tarix qatlariiga oltin harflar bilan yozib ketishgan. Bugungi jamoa haqida faqat iliq so'z aytishim mumkin, ijodiy va texnik xodimlarimiz o'z ishining haqiqiy fidoyilarini. Ular uchun gazeta hayot mazmuniga aylangan.

(Davomi 4-betda)



Men ham «Tong yulduzi»ning nurafshon ziyyosidan bahra olayotgan bir qizman!

Yodimda... 5-sinfda o'qib yurgan kezlarimda buvim singlim ikkimizni «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga olib bordilar. Ijodkor opalarim bizni iliq qarshi olishdi. Ustozlarimning ko'rsatma, o'gitlari tufayli maktab, mahalla, qolaversa, ushbu nufuzli

Istiqlol tengdoshlari

ZIYOSIDAN BAHRAMAND BO'LIB...

gazetaning jajji muxbiriga aylandin.

2007-yil hayotimda unutilmas iz qoldirdi: Zulfiya nomidagi Davlat mukofotining adabiyot yo'naliishi bo'yicha sovrindori bo'ldim.

Joriy yilda yana bir saodatmand voqeа ro'y berdi: Istiqlol tengdoshi bo'lib, aynan shu qutlug' sanada Davlat granti asosida talabalik baxtiga musharraf bo'ldim. Bunday yuksak yutuqlarga erishishimda jonajon gazetam – «Tong yulduzi»ning o'mi beqiyos...

Tahririyatning zahmatkash xodimlarini katta shodiyona munosabati bilan chin yurakdan muborakbos etaman.

Dilafro'z USMONOVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori

VATANGA MADHI



Go'zal yurtlar ko'pdir dunyoda,
Xalqi ozod, bog'lari chaman.
Barchasidan o'zing ziyoda,
Mehring qalbim ildizi, Vatan!

Sendan yiroq ketsam gohida,
Talpinadi bag'ringga yurak.
Ko'kragimda qamalib qushdek,
Tug'yon urar tuyg'u jonsarak.

Dilni qamrab olar hayajon,
Tinchlik bermas sog'inchim menga.
Murg'ak qalbim, Vatan – onajon,
Go'dak kabi talpinar senga.



Qo'rg'on yasay senga tanamdan,
Jonajonim, jannatga tengsan.
Mehring ulug' hatto onamdan,
Chunki onam onasi sensan!

Shahnoza RAVSHANOVA,
yosh muxbir



MAQSAD BILAN YASHAYDI

Marhabo To'rabekova Mustaqillik tengdoshi, bu yil 18 bahorni qarshiladi. Hozirda Toshkent onkologiya ilmiy markazida hamshiralik qilmoqda.

– Dunyoda hamshiralikdan savobliroq kasb bo'lmasa kerak, – deydi u. Ishdan bo'sh vaqtlarida

basketbol, voleybol mashg'ulotlariga qatnaydi. Kelajakda o'qishni davom ettirib, oliy toifali shifokor bo'lmoqchi. Marhaboxon, sizni omad hech qachon tark etmasin, o'qishishlarigizda muvaffaqiyatlar tilaymiz.



*Abdulla ORIPOV,
O'zbekiston xalq
shoiri:*

— Bola qalbi o'zicha bir dunyo. Bu dunyoda g'ubor bo'lmaydi. Bolalar gazetasi «Tong yulduzi» nashri esa ajoyib nashr. Istardimki, ana shunday beg'uborlik gazeta sahifalarida ufurib tursin. Uning o'quvchilari esa bundan ham ko'payishini tilab qolaman.



*Xudoyberdi
TO'XTABOYEV,
O'zbekiston
xalq yozuvchisi:*

— Bu gazetani adabiy maktab, tarbiya maktabi, deb ayta olaman. Shunday ekan, «Tong yulduzi» gazetasiga bundan keyin ham yosh avlodni tarbiyalashdek sharaflı ishlarida omad tilayman.



*Akrom
ALIMOV,
«Kamolot»
yoshlar ijtimoiy
harakati markaziy
Kengash raisi:*


— Bolalarimizga ziyo tarqatishda, ularni ezgulik va yaxshilik sari yetaklashda aslo charchama, «Tong yulduzi»! Sening yosh mushtarilaring orasida ulug' olimlar, davlat arboblari, Vatanimiz nomini dunyoga yoyuvchi o'g'il va qizlar yetishib chiqishiga ishonchim komil. Bu bora-dagi izlanish va ishlaringda hamisha omad yor bo'lsin!

To'ying muborak, suyukli gazeta!

«KIM KO'P KITOB O'CHIDI?»

Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, gazetamizning 27-iyul, 30-sonida shu nomdag'i tanlov e'lon qilingan edi. Unga kitobsevar o'g'il-qizlarimizdan juda ko'plab maktublar olindi. Maktublar saralanib, hay'at a'zolari tomonidan quyidagi o'quvchilar g'olib deb topildilar:

SEN BOBOMGA O'XSHAYSAN...



To'rtinchisinfaga o'tganimda, ustozimiz bir kuni «Tong yulduzi» gazetasining yangi sonlarini olib keldilar. Hammamizga tarqatib, o'qib, fikr bildirishimizni so'radilar. Bu mening gazeta bilan ilk tanishuvim edi. Bir qancha qiziqarli sahifalar ichida «Dono bobo bekti» ruknidagi ibratli rivoyatlar meni sehrlab oldi. Ayniqsa, dono boboning rasmi xuddi bobomga o'xshardi. Undagi rivoyatlarni

o'qirkaman, bobom bilan suhbattashayotgandek bo'lardim. Ertasi kuni otam bilan borib, gazetaga obuna bo'lib keldik. Uch yildan buyon har bir sonini yig'ib kelaman.

Qadrli gazetam! Yaqinda bayraming bo'layotganidan xabar topdim. Hamisha bayramlarning ko'rki bo'lib qolishingni tilab qoluvchi nabirang:

DOSTONBEK, 7-sinf o'quvchisi

TANLOVI YAKUNLANDI

1-o'rin — Sirdaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 1-umumta'lim maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi Shahnoza SHAMSIDDINOVA (135 ta kitob);

2-o'rin — Toshkent shahridagi 121-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Parvina OMONOVA (80 ta kitob);

3-o'rin — Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz shahridagi 107-maktabning 7-«V» sinf o'quvchisi Nigina QOBILOVA (50 ta kitob).

G'oliblarni «Tong yulduzi» gazetasi va «Gulxan» jurnalining 80 yilligi munosabati bilan o'tkaziladigan «Bolalar matbuoti bayrami»ga taklif etamiz.

Eslatib o'tamiz:
Bayram 2009-yil 10-oktabr, saat 11.00
da Toshkent shahridagi G'afur G'ulom nomli madaniyat va istirohat bog'ida boshlanadi.

Bu dunyoda g'ubor bo'lmaydi

SENI YAXSHI KO'RAMAN

— Abdunosir, kim bo'lmoq-chisan?

— Ustozdek yaxshi inson bo'lmoqchiman.

— Qaysi gazetani o'qiysan?

— «Tong yulduzi»ni!

— Nima uchun?

— Yaxshi gazeta-da!

Bu bolakay kim ekan, deb qiziqib qoldingizmi? U Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumanidagi 51-umumta'lim maktabining 3-sinfida o'qiydi.

Biz uning «Mening birinchi ustozim» nomli rasmini ko'rdik u

sinf rahbari

Dilbar Murodova bilan yonma-yon turibdi. Hammadan yuqori, birinchi o'rindan joy olish katta sharaf. O'zingiz bilasiz, bu o'ringa faqat a'lochi o'quvchilar loyiq topiladi.

— «Tong yulduzi» va «Gulxan» bolalar nashrlarining bayrami o'tkazilayotganini eshitib, tantanada ishtirok etishga oshiqdik. Yuksak ijodkorlik sizlarga hamisha yor bo'lsin, — deydi Abdunosirning ustozи Dilbar opa.

— Shunday a'lochi o'quvchilarni tarbiyalayotganingiz uchun Sizlarga ham rahmat, aziz ustozlar!



YILNOMA

1992-yil 8-yanvar — «Lenin uchquni» gazetasi «Tong yulduzi» nomi bilan chiqa boshladi.

1993-yil 23-aprel — «Sog'lim avlod uchun» Xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil etildi.

2002-yil 24-oktabr — «Bolalar sporti jamg'armasi» tashkil etildi.


2008-yil 8-yanvar — «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni kuchga kirdi.

YILNOMA

YILNOMA

GAZETAMIZ JONKUYARLARI

Bolalar adiblari — Tursunboy Adashboev, Anvar Obidjon, Miraziz A'zam va Abdurahmon Akbar



KIM KELIB KELIB O'CHIDI?



Hotam Qirg'izboyev

GAZETAMIZNING BOSH MUHARRIRLARI



Hidayat Hasanova



Yo'ldosh Shamsharov



Umar Xo'jayev



Sanjar Tilla



Ramiz Bobojon



G'ani Jahongirov



Suhrob Yo'ldoshev



Jabbor Razzoqov



Abdurahim Abdullayev



Abdusaid Ko'chimov



Akrom Berdimurodov




Umida Abduazimova



To'lqin Hayit

MENING TENGDOSH GAZETAM



- Men ham saksonga kirdim. Bu yosh inson umrining eng yuksaklikka yetishgan chog'laridan sanaladi. Shu yoshgacha u g'oyat qiziqarli, sermazmun, murakkab, quvonchli, tashvishli voqealarni boshidan kechiradi. Ulg'ayadi, kamol topadi, jamiyat a'zosi sifatida unga xizmat qiladi. «Tong yulduzi» ham paydo bo'lgan kundan boshlab jamiyatga, uning eng kichik a'zolariga xizmat ko'rsata boshladi. Mazkur nashr bilan tengdosh bu gazetaga 25 yil mobaynida Bosh muharrirligini qilganidan faxrlanaman.

Bugun nafaqat gazetaning, balki ko'p ming sonli O'zbekiston bolalarining ham bayramidir. Ayyomingiz muborak, aziz o'g'il qizlarim!

Suhrob YO'LDOSHEV,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi
(1959-1984-yillar)

BEG'UBOR

1984-yilning 26-mai. Bu kun mening jurnalistik hayotimida eng unutulmas kunlardan biri bo'lib qoladi. O'sha kuni respublika bolalar nashlarining eng ommaviy gazetasi mening muharrirligimda bosmagan chiqdi.

Bungacha yoshlar gazetasida ancha tajriba orttigandim. Ishchi yoshlar bo'limida hamda sayyor muxbir, bo'lim mudiri, mas'ul kobil, muharrir o'rinosari bo'lib ishlab, respublikaneng qaynoq qurilish maydonlari, mashhur paxtakor va makkajo'xkorlarning dalalari, ochiq ko'mir koni va shaxtalari, xullas, qadamim tegmagan joy olmoladi, desam lof bo'imas. Ham yozaman, ham suratga olaman. Shunday qaynob, jo'shib yurgan paytlarimda meni respublika bolalar gazetasiga rahbarlikka (Bosh muharrir) tayinlashdi.

Katta gazetada ishlab, o'sha-qo'sha sahifalarini to'dirib, ijod qilib yurgan jurnalist uchun bolalar gazetasi qandaydir boshqacharoq tuyulkarkan. Fikrigni jamlab, bolalarbop o'yinqaroqlik bilan endi hikoya qilaman desang, uch-to'rt varaq so'lib qoladi. Bu bezab-chirmash bilan bir gazeta sahifasi tayor bo'ldi, degani.

O'sha paytdagi gazetaga mas'ul kobil O'tbosarov (hozirgi kunda «Xalq so'zi» gazetasida tanqli jurnalista) nashrning navbatdagi soni maketini shunday chiroyli qilib chizardiki, yozgan maqolaning yarmisini qisqartirishga to'g'ri kelardi.

Bolalar gazetasi bu qisqa, lo'nda va qiziqarli voqealarga boy nashr. Unda oldi-qochdi ketmaydi, bolalarni aldab ham bo'lmaydi. Bolalarday beg'ubor, o'qishli, maqol, hikoya, Tursunoy Soliyeva singari tajribali

reportaj she'rlar, ertaklar hamda turlituman da'vatlar bilan gazeta paydo bo'la'. Bu gazetani o'sha paytda kirmagan xonadoni, o'qilmagan sinf gazetxonasi bo'lgan bo'lsa kerak.

Men muharrirligini qabul qilib

olganda, teroji bir million 65 ming nusxada gazeta chop etilgan bo'lsa, 1 yillardan so'ng 1 million 350 ming nusxaga yetdi. Bu o'sha davrdagi

jurnalistlar maktab hayotidan turkum hozirjavob maqolalar tayyorlashar, iste'dodli shoir Hamza Imonberdiyev esa o'zingin yumoristik «Xandasi»ni doim shay qilib turar, endi ijod bo'stoniga kirib kelayotgan Shoyim Bo'tayev, Gulchehra Aliboyeva va

Zulfiya Mo'minovalarning esa

ustozlardan o'rak olib, qo'li-qi'liga tegmay qalam tebratishardi. Tajribali bolalar jurnalisti Shohruh Akbarov esa eng dolzarb mavzularda maqolalar e'on qilib, o'chiliklari o'rak bo'ldi.

Esimda bor: gazeta respublika bo'ylab «Mohir qo'llar» to'garaklarini qatnashchilariga quyidagi topshiriqni berdi. «Hamma-o'quchviler o'zitikan va yasanag buyumlarini, asbob-uskunalarini tahririyatga jo'natsin. Ular respublika ko'rik-tanlovida namoyish etiladi»...

Bir-ikki haftadan so'ng gazeta tahririyatni fabrikaga aylandi-qoldi. Kuniga kelayotgan ikki-uch qop

JURNALISTIKA

sobiq Ittifoqdagi eng ommaviy bolalar nashrlaridan biri edi.

Gazetaning yanada o'qishli, adabiy-badiiy jihatdan bolalarbop va da'vatkor ruhda bo'lishi uchun hamma ijodkorlarjon kuydirardi.

Harkimning o'zo'nalihi, o'zish uslubi, 'a'iq ijod qaydoni bor edi.

Yozutxon Rahimova, Feruza Jalilova, Tursunoy Soliyeva singari tajribali

xatlardan tashqari, yuzlab turli-tumar o'yinchoqlar, sopol, o'ymakorlik buyumlari, so'zana va boshqa kiyim-kekchalar oqib kela boshladi. Ko'p o'tmay gazeta tahririyatni xatlara bo'limining katta xonasi liq to'ldi.

Men o'shanda bolalar

gazetasining katta tashkilotchilik ishiga qoyil qoldim.

Bolalar gazetasida ikki yilga yaqin ishlagan bo'lsam, qalbimda o'zgacha

bir ililiq, beg'ubor jurnalistik hissi bir umrga saqlanib qoldi. Men yana o'zimming qadron nashrim - yoshlar gazetasiga Bosh muharrir bo'lib qaytdim. Bu yog'i endi o'zi bir alohida hujjati qissa...

Jabbor RAZZOQOV,
O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalista.
(«Tong yulduzi» muharriri –
1984-1985-yillar)



Ravil Albekov 45 yil davomida gazetamizda fotomuxbirlik vazifasini bajarganlar. Shu sababdan ham u kishini «Tong yulduzi»ning Ravil bobosi deyishga haqlimiz.

- O'tgan yillar mobaynida gazeta menga ko'p va xo'p yaxshi narsalarini o'rgatdi. Eng avvalo, hayot maktabini o'rgandim. Yaxshi insonlar bilan uchrashdim, tanishdim. Istandimki, har bir nabiramga «Tong yulduzi»ning yuzi yong' bobosi-yu momosib bo'lish nasib etsin.

(Boshi 2-belta)

O'ttiz yildan buyon shu tahririyatda muqim ishlab kelayotgan Feruza Jalilova ishda ham, gapda ham «aslzoda» xodima, yana bitta Feruza Adilova opamizning jiddiy nighodidan hech bir kamchilik qochib qutilolmaydi. Hammaga yaxshilikni ravo ko'rvuchi Manzura opamizning bir piyola choyidan bahramand bo'Imagen kishi yo'q, Ma'mura Madrahimova bolalar sporti jonkuyari, ishda ham, gapda ham o'ziga xos xodim Yusuf Abdullayev, shoir Axtamkul Karimning she't tanlashda juda qattiqqo'i, har ishni joyida bajaradigan Gulyuz Orifjonova, nazokatli Sayyora Jo'reyeva «xatlar sohibasi»dir.

«Yolg'iz otning changi chiqmas», degan maqol bor. O'zibo'larchi, bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Avalo rahbarlarimizning yaqindan ko'mak berayotganliklarini alohida ta'kidlagan holda gazeta atrofiga juda katta ziyojlar qatlami yig'ilgani. «Bolalar matbuoti bayrami» tadbirini o'tkazayotgan kezda bularni tilga olib o'tmasib bo'lmaydi. Bu o'rinda bolalar shoiri, bu yil yetmis yoshni qarshilagan Tursunboy Adashboyev hamda Abdurahmon Akbarlarining nomlarini alohida ta'kidlab o'tsh joizdir. Xillas, jamoatchilik bilan aloqani yaxshi yo'lg'a qo'yilgani ishimizga juda katta ko'mak bermoqda.

Gazetamiz qoshida «Yosh muxbirlar» tugaragi ishlab haqida ham fikr bildirib o'tshiga to'g'ri keradi. Tajribamidan ko'rdimki, bolalar uchun yozish eng murakkab jarayon. To'g'ri, man degan ijodkor sharaqlatib maqola yozib tashlashi mumkin, amma u o'quvchi galibiga yetib bormasa-chi?! Shuning uchun tahririyat yosh xodim va yosh muxbirlarimizni masalaning ana shu jihatlariga e'tibor qaratishlariga ahamiyat berib kelyapmiz.



Gazetaning birinchi jamoasi

Feruza ADILOVA, mas'ul kotibi:

- Maktobda o'qib yurgan paytlarim bilimi, mustahkan irodasi, kuchli mahorati bilan O'zbekistonimiz ko'plab ko'rik-tanlovlar g'oliblari yetishib chiqyapti. Bolalarga xizmat qilish o'ta xayrlar ish deyishadi. Bolajonlarimiz ma'naviyatini boyitishga dunyoga qurashini qo'shayotganidan mammunman.

Ma'mura MADRAHIMOVA, sport bo'limi muharriri:

- Maktabda o'qib yurgan paytlarim bilimi, mustahkan irodasi, kuchli mahorati bilan O'zbekistonimiz mas'ul kotiblikkacha bo'igan jarayonni mas'ul boshlab tuman gazetasida kichik maqolalarimiz e'on qilina boshladi. Bolalikdagisi havas meni bolalar olamida yashashga o'rgatti. O'n besh yildan buyon «Tong yulduzi» gazetasida sport va harbiy vatanparvarlik bo'limi muharriri vazifasida ishlab kelmoqdamdan. Men beg'uborlik, baxtiyorlik bilan har kuni yuzma-yuz kelayotganidan faxrlanaman. Ozod diyoring baxti bilan diydorlashish nashidas hech birimizni tark etmasin!

Yusuf ABDULLAYEV, bo'lim muharriri:

- Men yigirma yil mobaynida «Sharq yulduzi» jurnalida musahih lavozimidan yulduzda qurashidi. Shu yillarni hayotimning eng bosh o'tdim. Bu yillarni faraxbaxsh onlari deb bilaman mazmuni, faraxbaxsh onlari deb bilaman. Ayni damda taqdir meni yana bir bor siyaldi. Xalqimiz ardog'ida bo'lgan qilgan «Tong yulduzi» gazetasida sport va harbiy vatanparvarlik bo'limi muharriri vazifasida ishlab kelmoqdamdan. Men beg'uborlik, baxtiyorlik bilan har kuni yuzma-yuz kelayotganidan faxrlanaman. Yurtim kelajagi bo'igan bolajonlar bilan ishlash naqdar zavqlari va sharafli.

Xizmat faoliyatim bu yerda davom etayotganidan behad mammunman.

«Tong yulduzi»ning bugungi jamoasi



O'ZIMIZNING RAVIL BOBO



Ravil Albekov 45 yil davomida gazetamizda fotomuxbirlik vazifasini bajarganlar. Shu sababdan ham u kishini «Tong yulduzi»ning Ravil bobosi deyishga haqlimiz.

- O'tgan yillar mobaynida gazeta menga ko'p va xo'p yaxshi narsalarini o'rgatdi. Eng avvalo, hayot maktabini o'rgandim. Yaxshi insonlar bilan uchrashdim, tanishdim. Istandimki, har bir nabiramga «Tong yulduzi»ning yuzi yong' bobosi-yu momosib bo'lish nasib etsin.

YOSHLIK O'KTAM, KELAJAK KO'RKAM BO'LSIN!



15 yoshli Behruz Ne'matovni Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashgan Akademik litseyning fortepyano bo'limida tahsil oladi. Bir qator Respublika va xalqaro tanlovlardan g'olib.

Yaqinda milliy simfonik orkestri bilan katta dasturlarda ishtiroy etib, tinglovchilar e'tiboriga tushdi. Isroil, Italiya davlatlarida bo'lib o'tgan Xalqaro san'at festivallarida qatnashib, birinchi o'rinni egalladi. Bu yutuqlarunga qanot bag'ishladi.


Yanada ko'proq o'qib, izlanishga harakat qilayotgan Behruzdan kelajakda umidimiz katta.

Yaqinda poytaxtimizning Shayxontohur tumani-dagi 59-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi Zarifjon Muhammadjonov Yaponiyaning Tokio shahrida o'tkazilgan shotakan karate-do bo'yicha jahon championatida ishtiroy etib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Bu xushxabar nafaqat ota-onasi va murabbiyini, balki butun O'zbekiston xalqini xushnud etdi.




— Kelajakda yetuk jurnalist bo'lishni orzu qilaman, — deydi termizlik Umida Suvonova. U Mustaqilligimizning 18 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «Eng ulug', eng aziz» viloyat tanlovi g'olib bo'ldi. «Fuprog'ingdan aylanay» nomli she'riy to'plami chop etilgan.

Gazetamiz muxlisi Umida xonga omad yor bo'lsin!



GAZETANING



Respublikamizda chop etiladigan ko'plab matbuot nashrlari sahifalarida krossvord-u chaynvordlari bilan qatnashib kelayotgan Foziljon aka Oripovni «Tong yulduzi»ning ham «qadrdon do'sti», deyishadi.

«QADRDON DO'STI»

— Menga bunday ta'rif berishlarining bir sababi bor: «Tong yulduzi» bolalikdanoq qadrdomimga aylangan. Yodimda bor, haftada ikki marotaba chiqadigan gazetani pochtachi amaki uyimiz ko'chaning yuzarog'ida bo'lgani uchun, mahallangdagi obunachi bolalarga tarqatgin, deya biznikiga tashlab ketardilar. Men esa o'nlab gazetalarni quchoqlab, faxr bilan egalariga tarqatib chiqardim...

Keyinchalik boshqotirmalar tuzishga qiziqib qoldim. Bu soha bilan 1963-yildan buyon shug'ullanaman, ilk tuzgan krossvordim 1974-yili «Guliston» jurnalida bosilib chiqqan. Shu yili «Tong yulduzi» gazetasida ham

krossvordim e'lon qilingan edi. Shundan buyon turli mavzularda krossvord-u chaynvordlar tuzish sevimli mashg'ulotimga aylangan.

Boshqotirmalar tuzishda birinchi navbatda imlo jihatidan to'g'ri yozilishiga e'tibor qarataman. Shuningdek, yurtimiz tarixi, jug'rofiyasi, mumtoz adabiyotimizga oid savollardan foydalanishga harakat qilaman.

Fursatdan foydalanib, «Tong yulduzi»ning zahmatkash ijodkorlarini gazetaning tabarruk sanasi bilan qizg'in muborakbos etaman.

(Foziljon akaning yubiley munosabati bilan tuzgan skanvordi 7-betda e'lon qilinyapti.)

Krossvordning vatani Janubiy Afrikaning Keytaun shahri hisoblanib, ilk marotaba 1913-yilda shahar gazetasida e'lon qilingan.



Qutlov

Ilk bor qo'limga olib varaqlagan gazetam — «Tong yulduzi» edi. Men uni zavq-shavq bilan berilib o'qiganman. Bir o'qishdayoq u mening sevimli gazetanga aylangan. To'g'risi, bu gazeta mening bolalikdagidagi do'stim va sirdoshim edi. Undagi har bir xabar, maqola, she'r va hikoyalarni bitta qoldirmasdan o'qirdim. Agar uni o'z narsasini yo'qotgan odamday gangib yurardim.

BOLALIKNING



PORLOQ YULDUZI

Bu gazetani jonajon, yaqin do'stimni sog'inganday sog'inardim, juda qadrdon birodarimni izlaganday izlardim.

Ilk bor obuna bo'lgan nashrim ham shu gazeta edi. U endi mening doimiy hamrohimga aylangan edi. Uni oila a'zolarimga va do'starimga ham quvonch bilan o'qib berardim. Ayniqsa, otam rahmatlik gazetada chop etilgan ertak, hikoya va qissalarni ko'proq o'qitib, eshitardilar.

Ilk maqolalarimni ham aynan shu gazetaga yuborganman. Uning chop etilishini orziqib kutganman. Lekin hadeganda maqolalarim bosilavermaganidan aslo xafa bo'limganman. Shu narsani quvonch bilan aytishim mumkinki, «Qulf» degan ilk hikoyam shu gazetada bosilgan. Endi bu quvonchni so'z bilan ta'riflab bo'lmaydi. Chunki bunday quvonchning chegarasi yo'q, ta'rifi yo'q...

Keyinchalik ham gazeta bilan qadrdonligim mustahkamlanib bordi. Bir qancha hikoya, maqola va suhbatlarim bosildi. U mening bir umrlik ma'naviy hamrohimga aylandi.

Keyin bu gazetani farzandlarim o'qib voyaga yetdi. Hozir uni nabiralarim mehr bilan o'qishayotir. Bir so'z bilan aytganda, gazeta avlodlarni bir-biriga mustahkam bog'lab kelayotir. Shu bois, bu gazeta qirq yildan buyon xonadonimizning aziz mehmonidir.

Mustaqillik gazetaga «Tong yulduzi» degan qutlug' nom berdi. Nazarimda, endi u o'zining haqiqiy nomini topdi. Bu sevimli nashr mustaqillikning nurafshon tongida tug'ilgan farzandlarimiz qalbiga ma'naviyat nurlarini sochayotir. Ertangi kunimiz egalarini kamolga yetkazishda jonbozlik ko'rsatayotir.

Bugun «Tong yulduzi»da xizmat qilayotgan tahririyatning ahil jamoasiga har jihatdan havas qilsa arziydi. Gazeta nihoyatda qiziqarli, o'qishli va mazmunli chiqmoqda. Eng muhim, bolalar dunyosini keng qamrab olayotgani bois, mushtariylar soni yildan-yilga o'sib bormoqda.

Fursatdan foydalanib, «Gulxan» jurnalni jamoasi va o'zim nomimdan qadrdon gazetamni hamda fidoyi hamkasblarimni qutlug' bayram bilan samimiy tabriklayman.

«Tong yulduzi» hamisha beg'ubor bolaligimizning porloq yulduzi bo'lib qolaveradi.

Ashurali JO'RAYEV,
«Gulxan» jurnalni Bosh muharriri,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

**«GULXAN» JURNALI JAMOASINI
QUFLUG' BAYRAMI BILAN
TABRIKLAMIZ!**


«TONG YULDUZI» CHILAR

BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!




Svetlana INOMOVA, «Sog'lom avlod uchun» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi raisi:

— Respublikamiz bolalarining sevimli nashri «Tong yulduzi» gazetasining yubileyi bilan qutlash uchun shoshildik. Negaki, bu nashr o'zining rang-barang sahifalari, mulohazaga chorlovchi maqolalari ila o'quvchilar qalbiga chuqur kirib borgan gazetalardan biridir. Yosh avlodning savodxon va bilimdon bo'lib voyaga yetishida ayni damda gazetaning o'rni beqiyos, deb ayta olaman. Shunday ekan, «Tong yulduzi» gazetasini bu qutlug' sana bilan qutlab, kelgusi ishlarida omad tilab qolaman.



Miraziz A'ZAM,
bolalar adibi:

— 1959-yili «G'uncha» jurnaliga ishga kelganman. O'sha paytda jurnalimiz bilan bir qavatda joylashgan shu gazetani sevib o'qiganim uchun o'z ijodimdan namunalarimni tahririyatga berib turardim. Birin-ketin «Metallurg» nomli balladam, «Antiqa» nomli ertak-dostonim, Pushkin, Nekrasov va boshqa rus shoirlari asarlaridan qilgan tarjimalarim gazeta sahifalarida chop etilgan. Shuning uchun ham bu gazetani jonajon gazetam deya olaman. Uning bolalar hayotida, tarbiyasida katta o'mni bor. To'yini nishonlayotgan jonajon gazetamga kelgusi ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.



TOPSHIRIQLI AYLANMA SKANVORD



Javoblarni shaklda belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida yozish bilan skanvordni hal eting. Javoblarni to'g'ri topgan bo'lsangiz, shaklning o'rta

qismidagi xonalardagi raqamlarda yashiringan muammonomani javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar bilan almashtirish orqali yeching. Bunda qadrdon

gazetamizning tabarruk yoshi munosabati bilan tabrik so'zlarimizni bilib olishga muvaffaq bo'lasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

Yuragimda qani endi shu gazeta yo jurnalda mening ham biror narsam bosilib chiqsa, degan orzu-havas paydo bo'ldi. Shu niyatda bir kuni gazeta tahririyatiga yo'l oldim.

— Ovqat payti bo'lgani uchun xonada ikkita odam shaxmat o'ynab o'tirgan ekan.

Men o'yinni kuzatib o'tirdim. O'yin

PARVOZ

*Metroning hozirgi
«Mustaqillik maydoni»
bekati yonida
«Molodaya gvardiya»
degan kinoteatr bo'lardi.
O'shandan bir hovli
narida ikki qavatlari eski
binoning ikkinchi
qavatida «Tong yulduzi»
(*«Lenin uchquni»*)
gazetasining tahririyatini
joylashgandi.*



TILAYMAN

so'radi, sotuvchi gazetalarni sanab turib, 22 dona qolibdi, dedi.

— Bering hammasini, — dedim.

— Maqolangiz bosilib chiqqan bo'lsa, boshqalar ham o'qisin, hammasini o'zingiz olib qo'ysangiz, qandoq bo'ladi!?

Sotuvchining gapi meni o'ylantirib qo'ydi va 15 dona olib, qolganini sotuvda qoldirdim.

Bir quchoq gazeta olib kelib, uyda devorga ilib qo'ydim. Gazetalar yo'qolib ketdi, ammo yorqin xotiralar — meni adabiyot olamiga ilk qadamimni qo'ydirgan qadrondon gazeta halilhamon yodimda.

Farhod MUSAJON

tugagach, ulardan lo'ppi yuzligi menga tabassum bilan boqdi.

Menga Po'lat Mo'min keraklar, — dedim.

— Eshitaman, — dedi u kishi.

— Iye, siz... — sal dovdirab qoldim.

Po'lat aka: — Xizmat, nima yumush bilan keldingiz? — dedi yumshoq ohangda.

— She'rlar mashq qilib turaman. Ko'rib berasizmi, devdim.

— Ko'rib beramiz, olib keldingizmi?

— Ha, — dedim va qo'yin cho'ntagimdan 48 varaqli qalin daftar chiqardim.

Po'lat aka daftarni olib varaqlab ko'rdilar.

— Ertaga keling, o'qib qo'yaman. Gaplashamiz, — dedilar Po'lat aka jiddiy tortib.

Ertasiga uzoq suhbatlashdik. Po'lat aka og'ir botmaydigan qilib she'rlarimni hali bo'sh va sayoz ekanligini tushuntirib berdilar.

Keyingi gal hikoyalrimni olib bordim. Po'lat akadan she'rlarga nisbatan hikoyalaram durustroq ekanligini eshitdim (shundan keyin yana o'n yillard davomida Po'lat aka hikoya va qissalarim haqida qimmatli fikrlarini bildirib yurdilar).

Po'lat akaning maslahati bilan Sur'at Bobojonov ikkalamiz hamkorlikda sahifa uyushtirdik. (Sur'at hozirda tibbiyot fanlari doktori, professor). Butun boshli sahifani uyushtirish bizga matab bo'ldi, gazetaning ishi qanchalik serdahmaza ekanini o'shanda bildim.


Sahifamiz bosilgan gazetani olish uchun sahar turib do'konga yugurdim. U paytda gazetalar suv tekin edi, sotuvchidan 30 dona



SURATI HAM SIYRATI GO'ZAL

Nazarimda har bir musavvirning chizgan rasmi bilan o'zining chehrasi orasida o'xshashlik bordek.

Gazetangizning bezagi, bolajonlarning chizilgan suratlari biram chiroyliki, deyishadi bizga ko'pincha. Shunda: «Ularni surati ham, siyrati ham go'zal bir inson — Nodira Mirzayeva chizadi-da», deb qo'yamiz faxr bilan.



QO'LINGIZGA



YETIB BORGUNCHA...

Aziz bolajonlar! Sevimli gazetangiz «Tong yulduzi»ning chop etilish jarayoniga hech qiziqqanmisiz? Gazeta sahifalarining rang-barang bo'lib chiqishida «O'zbekiston» nashriyot matbaa ijodiy uyi bosmaxonasi xodimlarining hissalarini katta. Gazeta haftaning dushanba kuni, gazeta chop etish sexi rahbari Olim Meliyev boshchiligidagi «Starlayn S 30» mashinasida bosmadan chiqadi. Gazeta chop etilayotganida, sahifalardagi ranglar va matnlarni Oybek Turg'unov hamda Erkin Usmonov nazorat qilib turadilar. Yangi chop etilgan gazetani Shohida Yusupova va Gulnora Nosirbekova taxlab, siz aziz o'quvchilar qo'liga yetib borishi uchun taxt qilib qo'yadilar. Bu jarayonga Husan Mahammadiyev bosh-qosh bo'lib, ishchilarga amaliy ko'mak beradi. Shu tariqa bir necha soatlardan so'ng gazetaning yangi soni o'z muxlislari qo'liga yetib boradi.

Chop etish sexida faoliyat olib borayotgan aka va opalaringizni bayram bilan qutlab, mas'uliyatli hamda sharafli ishlarida omad tilab qolamiz.

ZEBO qiz



**Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
25-umumta'lim maktabi**



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga
qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHIYODGOROV,
Olovuddin
ARIPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir rinbosari),
Feruza ADILOVA,
(Mas'ul kotib)
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 700129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 26471
Buyurtma N: J 8191